

**BROKKOLI KARAMINING O‘ZBEKISTON JANUBI TUPROQ-IQLIM SHAROITIGA
MOS ISTIQBOLLI NAV NAMUNALARINI TANLASH**

Nurmatov N.J. - Termiz davlat pedagogika instituti Kimyo-biologiya kafedrasi dotsenti, q.x.f.d.

ORCID: [0009-0001-8825-646X](https://orcid.org/0009-0001-8825-646X)

E-mail: nurmatovnorqobil@gmail.com



*Xudoyberdiyeva N.A. - Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch
doktoranti*

ORCID: [0009-0005-5953-081X](https://orcid.org/0009-0005-5953-081X)

F-mail: xudoyberdievanodira67@gmail.com

Kalit so‘zlar. Brokkoli karami, nav, duragay, umumiy hosildorlik, karambosh vazni, nav tanlash, qiyosiy nav.

Ключевые слова. Капуста брокколи, сорт, гибрид, общая урожайность, масса кочана, подбор сортов, стандартный сорт.

Key words. Broccoli, variety, hibryd, total yield, head weight, selection of varieties, sstandard variety.

Annotatsiya. Mazkur maqolada brokkoli karamining O‘zbekiston janubi tuproq-iqlim sharoitiga mos nav namunalarini tanlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari bayon qilingan. Fabrika zdorovya navi hamda F₁ Monako va F₁ Bataviya duragaylari istiqbolli nav amunalari sifatida tavsiya qilingan.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследований по подбору сортов брокколи, подходящих для почвенно-климатических условий южного Узбекистана. В качестве перспективных сортообразцов рекомендованы сорт Фабрика здоровья, а также гибриды F₁ Монако и F₁ Батавия.

Abstract. This article presents the results of research conducted on the selection of broccoli varieties suitable for the soil and climatic conditions of southern Uzbekistan. The Fabrika zdorovya variety and the F₁ Monaco and F₁ Batavia hybrids are recommended as promising varietal samples.

Kirish. Brokkoli karami (*Brassica oleracea* L.) - karamdoshlar oilasi, gulkaram kenja turiga mansub bir yillik sabzavot ekini hisoblanadi (A.T.Lebedeva, 2003).

Brokkoli karami tarkibida oqsillar, uglevodlar natriy, kaliy, kaltsiy, magniy, fosfor, temir va yod moddalarini saqlaydi. Tarkibidagi C vitamin miqdori bo'yicha limondan qolishmaydi, shuningdek, karamning boshqa turlariga nisbatan B₁, B₂, B₆, PP, C vitaminlarini ko'p miqdorda saqlaydi. Brokkoli karamini iste'mol qilish insonda moddalar almashinuv jarayonlari, asab va ovqat hazm qilish tizimlari, ayniqsa, jigar, o't qopi va oshqozon ichak faoliyatiga jobiy ta'sir qiladi.

Karamning boshqa turlariga nisbatan tezpisharligi, issiqqa va qurg'oqchilikka chidamlilik xususiyati tufayli brokkoli karamini mamlakatimiz janubi sharoitida yetishtirib, mahsulotini eksportga chiqarish imkoniyatlari juda katta. Shuning uchun ushbu sabzavot ekinini mamlakatimiz janubi sharoitiga introduktsiya qilish, ularni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish birinchidan sabzavotlar assortimentini ko'paytirishga, ikkinchidan mahsulotini eksport qilishga imkon beradi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda brokkoli karamining O'zbekiston janubi tuproq-iqlim sharoitiga mos nav namunalarini tanlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi.

Tadqiqotlar obyekti. Tadqiqotlar obyekti sifatida brokkoli karamining 8 ta nav namunalari tanlab olindi (1-jadval).

Tajribada har bir nav namunasi 70x40 sm sxemada ekildi. Ekish muddati 20-iyul. Nav namunalarini taqqoslash uchun qiyosiy nav sifatida respublikamizda rayonlashgan F₁ Naksos duragayi xizmat qildi.

1-jadval

Brokkoli karamining o'rganilgan nav namunalari to'plami

No	Ekin turi	Nav namunalari nomi	Kelib chiqishi
1.	Brokkoli karami	F ₁ Naksos	Yaponiya
2.	Brokkoli karami	Fabrika zdorovya	Rossiya
3.	Brokkoli karami	Linda	Chexiya
4.	Brokkoli karami	Istochnik sily	Rossiya
5.	Brokkoli karami	Tonus	Rossiya
6.	Brokkoli karami	F ₁ Manaka	Gollandiya
7.	Brokkoli karami	F ₁ Manklana	Belarus
8.	Brokkoli karami	F ₁ Bataviya	Italiya

Tadqiqotlar uslubi. Dala tajribalarini o'tkazish, ekish, ekinni parvarish qilish, hosilni yig'ish, hisoblash va tahlillar Metodika polevogo opyta v ovoshevodstve (pod red. Litvinova S.S., M., 2011), Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi (Azimov B.J., Azimov B.B., 2002), Metodicheskiye ukazaniya po ekologicheskomu ispytaniyu ovoshnyx kultur v otkrytom grunte (M., VNISSOK, 1987) kabi uslubiy ko'rsatmalar asosida olib boriladi.

Dala tajribalarida olingan natijalarning matematik-statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexov (1985) usulida hisoblanadi.

Tajribada har bir nav namunasi 70x40 sm sxemada ekildi. Ekish muddati 20-iyul. Nav namunalarini taqqoslash uchun qiyosiy nav sifatida respublikamizda rayonlashgan F₁ Naksos duragayi xizmat qildi.

Tadqiqotlar natijalari. O'rganilgan nav namunalarida karamboshlarning o'rtacha vazni hisoblanganda asosiy hosilda qiyosiy F₁ Naksos duragayi karamboshlari o'rtacha vazni 494,8 grammni tashkil etdi. Shuningdek, nav namunalari karamboshlarining o'rtacha vaznini qiyosiy nav bilan taqqoslanganda F₁ Monako duragayida 612 gramm, Fabrika zvyozd navida 652,4 gramm

F₁ Bataviya duragayida 684,5 grammni tashkil qilib, mos ravishda 3,0%, 9,7 % va 15,1 % ga yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. (2-jadval).

Ma‘lumki, gulkaramdan farqli ravishda brokkoli karami poyasida ko‘plab yon shoxlar hosil bo‘ladi va ularda karamboshlar shakllanib qo‘shimcha hosil olish imkonini beradi. Bizning tajribalarimizda xuddi markaziy karamboshda bo‘lgani kabi yon sxlarda hosil bo‘lgan karamboshlardan hosil miqdori ham F₁ Monako, F₁ Bataviya duragaylari va Fabrika zvyozd navida yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi va mos ravishda 5,2 t/ga, 6,0 t/ga va 5,5 t/ga ni tashkil qildi.

2-jadval

Brokkoli karami nav namunalarining karambosh vazn ko‘rsatkichlari, gramm (2023-2024 yy.)

Nav namunalari	Asosiy hosil		Qo‘shimcha hosil	
	Karam-bosh vazni, g	Qiyosiy navga nisbatan,%	Karam-bosh vazni, g	Qiyosiy navga nisbatan,%
F ₁ Naksos q.n.	594,8	100	136,4	100,0
F ₁ Bataviya	684,5	115,1	173,2	126,9
Fabrika zdorovya	652,4	109,7	154,1	113,0
F ₁ Monako	612,8	103,0	148,5	108,9
Istochnik sily	518,8	87,2	119,3	87,5
F ₁ Manklana	401,6	67,5	97,3	71,3
Linda	390,2	65,6	84,1	61,6
Tonus	311,4	52,3	74,4	54,5

Qo‘shimcha hosilda ham F₁ Monako va F₁ Bataviya duragaylari hamda Fabrika zdorovya navida karambosh vazni ko‘rsatkichi qiyosiy navga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi.

Nav namunalaridan olinadigan hosil miqdori ularni qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga joriy qilishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. O‘rganilgan nav namunalarining hosildorlik ko‘rsatkichlari hisoblanganda, hosildorlikning yuqori yoki past bo‘lishi karamboshlarning o‘rtacha vazniga bog‘liq ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Eng yuqori umumiy hosildorlik F₁ Monako, F₁ Bataviya duragaylari va Fabrika zvyozd navida qayd etilib, ushbu nav namunalarining umumiy hosildorligi gektaridan mos ravishda 26,8 t/ga, 28,3 t/ga va 30,1 t/ga ni tashkil qildi va qiyosiy navga nisbatan mos ravishda 6,7%, 12,7% va 19,9% ga yuqori bo‘ldi.

3-jadval

Brokkoli karami nav namunalarining hosildorlik ko‘rsatkichlari (2023-2024 yy.)

Nav namunalari	Hosildorlik, t/ga		
	Asosiy hosil	Qo‘shimcha hosil	Umumiy hosil
F ₁ Naksos q.n.	20,5	4,6	25,1
F ₁ Bataviya	24,1	6,0	30,1
Fabrika zdorovya	22,8	5,5	28,3
F ₁ Monako	21,6	5,2	26,8
Istochnik sily	18,0	4,2	22,2

F ₁ Monklano	14,0	3,5	17,5
Linda	13,5	2,8	16,3
Tonus	11,0	2,5	13,5

Xulosa. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, Linda, Istochnik sily, Tonus navlari va F₁ Monklano duragayi karamboshining vazni va umumiy hosildorligi bo‘yicha qiyosiy nav sifatida olingan F₁ Naksos duragayiga nisbatan past ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Fabrika zdorovya navi hamda F₁ Monako va F₁ Bataviya duragaylari karamboshining vazni va umumiy hosildorlik bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi va ular O‘zbekiston janubi sharoitida yetishtirish uchun istiqbolli nav namunalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov B.J., Azimov B.B., Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi. – T. 2002. – B. 176-178.
2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta, 5-e izd-e, M.: Agropromizdat, 1985. - 351 s.
3. Litvinov S.S. Metodika polevogo opyta v ovoshevodstve.-M. 2011 - 650 s.
4. Lebedeva A.T. Sparjevaya kapusta brokkoli. - Sad i ogorod, 2003. - № 5. – S. 2–5.
5. Metodicheskiye ukazaniya po ekologicheskomu ispytaniyu ovohnyx kultur v otkrytom grunte M. - VNISSOK. – 1987. – Cast I. -123 s.